

**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
SANITARIYA-
EPIDEMIOLOGIK
OSOYISHTALIK VA JAMOAT
SALOMATLIGI
XIZMATINING
QASHQADARYO VILOYAT
MIRISHKOR TUMAN
BO'LIMI**



**REPUBLIC OF
UZBEKISTAN SANITARY-
EPIDEMIOLOGICAL
PEACE AND
COMMUNITY HEALTH
SERVICE
KASHKADARYA REGION
MIRISHKOR DISTRICT**

Mirishkor tumani, Yangi Mirishkor shaharchasi O'zbekiston ko'chasi 19-uy tel: 652-10-17 e.fax: 652-10-18.

5«10»2022 yil.

75-4-63-SES/2022-son

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni takomillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining 2022 yil 12 apreldagi "Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni takomillashtirish to'g'risida" 29-sonli buyrug'i hamda san epid xizmatning Qashqadaryo viloyat boshqarmasi (keyingi o'rinlarda – Boshqarma deb ataladi)ning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1.O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining 2022 yil 12 apreldagi "Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni takomillashtirish to'g'risida" 29-sonli buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi faoliyati to'g'risida nizom 1-ilovaga muvofiq;

korruptsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirishva taqdim etish bo'yicha nizom 2-ilovaga muvofiq;

manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom 3-ilovaga muvofiq;

davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risida nizom 4-ilovaga muvofiq;

xodimlarning korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma 5-ilovaga muvofiq;

ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma 6-ilovaga muvofiq;

kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma 7-ilovaga muvofiq;

korruptsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish hamda ko'rib chiqish reglamenti 8-ilovaga muvofiq;

korruptsiyaviy xatti-harakatlarsodir etilganda xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament 9-ilovaga muvofiq;

korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti 10-ilovaga muvofiq;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosat 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat biriktirilgan mas'ul xodim(Sh.Elliyev):

Bir hafta muddatda mazkur buyruq bilan tasdiqlangan hujjatlarning mazmun-mohiyati barcha xodimlar e'tiboriga yetkazilsin.

5. Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat biriktirilgan mas'ul xodim(Sh.Elliyev)

xodimlar o'rtasida korruptsiyaga qarshi talablarga rioya etilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilsin.

Mazkur buyruq ijrosi yuzasidan nazoratni o'z zimnamda qoldiraman.

Buyruq bilan tanishdim

Sh.Elliyev

	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	OYBEK MURTOZAYEV RAJABQULOVICH
	Imzolangan sana	5 OKT 2022 14:55
	Hujjat kodi	FW8127838284
	Hulosa kodi	UL3276337221